

IXVON AS SAFO FALSAFIY GURUHI MA'NAVIY MEROSINING FALSAFIY TAHLILI

Azamatova Sevinch Valijon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Jasur Sulaymonov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi dotsenti, PhD

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola X asrda Basrada yashirin tarzda faoliyat olib borgan falsafiy guruh Ixvon As-Safo haqidagi tashqi manbalar ma'lumotlarining qiyosiy tahlili, ularning ilmiy merosi hisoblanuvchi risolalarda o'zлari haqida keltirilgan kam sonli axborotlar, shuningdek, guruh a'zolarining ba'zilari haqidagi noyob shaxsiy ma'lumotlar keltirilgan. Guruhga qabul qilish jarayonlari, jamoa ichidagi darjalar bayoni ham muxtasar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: "Rasail Ixvan As-Safa", Tavhidiy, Al-Mantiqiy, "Kitab al-imta val muannasa", Abdu Al-Jabbor, "Abror va Rahimyon", "Fuzalo axyor", "Karomli fuzalo", Nizoriylar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен сравнительный анализ информации из внешних источников о философской группе Ихван Ас-Сафа, которая действовала тайно в Басре в X веке, небольшое количество информации о них в трактатах, которые считаются их научным наследием, а также уникальная личная информация о некоторых членах группы. Также кратко описываются процессы приема в группу и уровни внутри команды.

Ключевые слова: "Расайл Ихван Ас-Сафа," Тавхиди, Аль-Мантики, "Китаб аль-имта валь муаннаса," Абду Аль-Джаббар, "Аброр ва Рахимон," "Фузало ахёр," "Каромли фузало."

ANNOTATION

This article provides a comparative analysis of external sources about the philosophical group Ikhwan As-Safa, which operated secretly in Basra in the 10th century, a small amount of information about themselves in treatises considered their scientific heritage, as well as unique personal information about some members of the group. The process of group admission and the descriptions of levels within the team are also briefly described.

Keywords: "Rasail Ikhwan As-Safa," Tawhidi, Al-Mantiqi, "Kitab al-imta wal muannasa," Abdu Al-Jabbar, "Abror va Rahiymon," "Fuzalo ahyor," "Karomli fuzalo."

KIRISH

Insoniyat tarixida juda ko'plab intellektual tashkilotlar va jamoalar o'z faoliyatini olib borganligi ma'lum. Ularning ba'zilari yo'naliish jihatdan tariqatlarga aylangan bo'lsa, ba'zilari nom nishonsiz yo'q bo'lib ketkan. Yana shunday tashkilotlar borki, odamlarni o'ziga eng ko'p qiziqtiradi, qayta-qayta o'rganishga majbur etadi. Sababi, ularning faoliyati o'ziga xosligida, unikallikka ega ekanlidigadir. Shunday tashkilotlardan biri X asrda o'z faoliyatini Basrada olib borgan deya taxmin qilinadigan "Ixvon As-Saf" yashirin falsafiy tashkilotidir. Ushbu guruh a'zolari o'zlaridan 52 risoladan iborat "Rasail ixvan as-safa" nomli maktublar yig'indisini meros qoldirgan bo'lib, olimlar shaxsiyati haqida ma'lumotlar deyarli mavjud emas.

Sof birodarlar jamoa a'zolari haqida faqatgina 48-risoladan ma'lumot beradilar. "Bizning barcha oljanob va fazilatli odamlardan birodarlarimiz va do'starimiz bor, ular butun mamlakat bo'ylab tarqalib ketgan. Ular orasida bir guruh shohlar, shahzodalar, vazirlar, ishchilar va yozuvchilarning o'g'illari bor. Ular orasida bir guruh zodagonlar va savdogarlarning o'g'illari bor. Ular orasida bir guruh faqihlar, diniy ulamolar, hunarmand o'g'illari, ma'murlar va ishonchli kishilar bor". (Sof birodarlar maktublari 4/165)

O'z maktublari orqali ularning shaxsiyati haqida, qayerda faoliyat yuritganlari va aynan qaysi oqimga mansub ekanliklari haqida ma'lumot olish deyarli imkonsiz. Sababi, risolalarning hech bir qismini bu ochiqlanmagan. Ammo, ba'zi tashqi manbalar borki, biz ulardan oz bo'lsada ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolada X asrda Basrada faoliyat olib borgan "Ixvon As-Saf" (Safolik birodarlar) nomli yashirin tashkilotning tarkibi, g'oyalari tahlil qilindi. Asosiy manba sifatida tashkilotga mansub bo'lgan mashhur 51 ta risoladan iborat "Rasail Ixvon as-Saf" to'plami qo'llanildi. Ushbu risolalar o'z davrining falsafiy, diniy va ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, jamoaning intellektual merosini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Shuningdek, Abu Hayyon at-Tavhidiyning "Kitab al-Imta' val-Muanasa" asari muhim qo'shimcha manba sifatida tanlab olindi. Tavhidiy o'z davrida yashagan faylasuf va yozuvchi sifatida uning qaydlari jamoaning ichki faoliyati va shaxsiy tarkibi haqida noyob ma'lumotlar beradi. Yana bir muhim ikkinchi darajali manba sifatida Abdu al-Jabbor (vaf.

1025)ning "Tathbit dala'il al-nubuvva" (Payg' ambarlik dalillarini tasdiqlash) asariga murojaat qilindi. Unda muallif jamoaning ayrim a'zolari, xususan, Abu Sulaymon al-Mantiqiy va Abu Sulaymon al-Maqdisiy haqida mulohazalar bildiradi. Shuningdek, Tavhidiy fikrlarining ishonchlilagini tasdiqlovchi tarixiy dalillar ham keltiriladi. Mazkur adabiyotlar orqali Ixvon as-Safo tarkibidagi shaxslar haqidagi ma'lumotlar solishtirildi va mavjud tafovutlar aniqlashtirildi.

Maqolada analiz, sintez, tarixiy-fenomenologik tahlil, komparativ-analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Birinchi va eng asosiy manbalardan biri bu Abu Hayyon Tavhidiyning "Kitab al-imta val muannasa" asaridir. Ushbu asar 40 ta "tun"dan iborat. Har bir kecha esa suhbatlardan tashkil topgan. Ushbu suhbatlar adabiyot, falsafa, din, grammatika, zoologiya va boshqa sohalarni qamrab oladi. Asarda fikrlar suhbat tarzida ifoda etiladi.[1] Ixvon As-Safo haqida fikrlar asarning 33-tun suhbatlarida uchraydi. Ushbu bo'limda Tavhidiy Buvayhiylar saroyi vaziri Abdulloh al-Husayn ibn Ahmad ibn Sa'dan Samsam bilan suhbat quradi. Abu Hayyon vazirdan Zayd ibn Rifo haqida so'raydi. Ibn Sa'dan uning bir muddat Basrada yashaganligini va falsafaga qiziqshi sababli u yerda bir guruh olimlar bilan tanishgaligini aytadi.

Ushbu joylashuv ham bejizga tanlanmagan. Basra geografik o'rniiga ko'ra arablar, forslar, hindlar, zardushtiyalar, yahudiylar va sobiylar yashaydigan ko'pmillat va turli e'tiqod vakillaridan iborat madaniy markazlardan biri edi.[2]

Olim ushbu guruhni Ismoiliylardan deb hisoblaydi. Suhbat so'ngida Tavhidiy Birodaralarning maktublarining ba'zilarini o'qigaligi haqida ham aytib o'tadi. Olim Ixvon As-Safo a'zolari sifatida Abu Sulaymon Muhammad ibn Ma'shar al-Bustiy (Al-Maqdisiy nomi bilan mashhur, boshqa ba'zi manbalarda uni Kindiy va Farobiy darajasidagi faylasuf deya ta'riflashgan), Abu al-Hasan Ali ibn Horun az-Zanjoniy, Abu Ahmad an-Nahrajuniy, Al-Avfiy kabi shaxslarni keltiradi. Lekin faqatgina ismlar bilan cheklanamiz xolos. Ularning qay biri aynan qaysi soha bilan shug'ullangan degan savol bizda ochiq qoladi.

Guruh a'zolari o'z nomlarini sir tutgan xolda risolalarni xalq orasida tarqatishgan. Asosan kitob do'konlariga hech qanday moddiy manfaatlarsiz tashlab ketishgan. Ular ushbu sa'y-harakatlarni Xudo yo'lida odamlarni buzuq e'tiqodddan qutqarish uchun qildik deya izoh bergenlar. Tavhidiy ularning fikriga qarshi bo'lgan va ularni adashganlardan deb bilgan. Sababi, ular vahiyga xato aralashgan deb bilishgani va e'tiqod yunon falsafasi va islom aqidasi bilan birlashganda to'g'ri bo'ladi deb hisoblaganliklari sabablidir. [3]

Ularning ushbu fikriga tanqidiy yondashsak, bir qancha savollar paydo bo'ladi. Umuman din va falsafa Ibn Rushdning "Ikki haqiqat nazariyasi"dan kelib chiqib baholasak, bir haqiqatga borishning ikki turli yo'llaridir. Ushbu ikki yo'lni birlashtirib bir butun va ravon yo'l xosil qilish imkonsizdir. Chunki, din va e'tiqod qay shakilda bo'lmasin aqidaga asoslanganligi sababli u dogmatik harakterda bo'ladi. Ya'ni diniy nuqtai nazardan ba'zi haqiqatlarni savollarsiz qabul qilish kerak. Bu aqidaning asosini tashkil etadi. Falsafa esa bu savolga asoslanuvchi, mutlaq bir haqiqatni taqdim etmaydigan sohadir. Har bir faylasuf hayoti davomida o'z olamida ma'lum bir savol bilan yashaydi. Uning buyukligi ana shu savolning qanchalar mantiqiy va orginal ekanligi bilan belgilanadi. Ixvon As-Saf o'zolari esa mana shu jihatdan radikal yondashganlar. Ular vaxiy va falsafa bir butunlikka ega va shunda biz mukammal e'tiqodga ega bo'lamiche degan maqsadda o'z risolalarini tuzganlar.

Navbatdagi manba X asr oxirlarida Rayda qozi vazifasida ishlagan mo'taziliy Abdu al-Jabbor (vaf.1025) bo'lib Sof birodarlar haqidagi ma'lumotlar uning "Payg'ambarlik dalillarini tasdiqlash" ("Tathbit dala'il al-nubuvva") nomli asarida uchraydi. Ushbu manba birinchi marta sharqshunos olim J.M.Shtern tomonidan tadbiq etiladi. Abu al-Jabbor asarida qozi Az-Zanjoniylar haqida ma'lumot berib, uning guruh boshliqlaridan biri ekanligini va ushbu guruhda undan tashqari kotiblar va yuqori martabali amaldorlar ham borligi haqida ma'lumotlarni keltiradi. Zanjoniyning maslakdoshlari safida Abu Ahmad An-Nahrajuriy, Al-Avfiy va astronom Abul Bag'l kabi olimlar borligi haqida aytadi. Ushbu shaxslar Basra aholisi bo'lib yana boshqa shaharlarda istiqomat qiluvchi vakillari ham borligini aytadi.[4] Tavhidiy ma'lumotlari bilan solishtirsak bu ikki inson ma'lumotlarida bitta guruh haqida gap ketayotganligini aniqlash mushkul emas. Faqatgina kotib va astronom Abul Bag'l shaxsiyati yangilik bo'ladi. Ularning vahiy ratsional yo'llar bilan "tozalanish"ga muhtoj degan fikrlari sabab Abdu al-Jabbor sof birodarlarga Islom dushmanlari sifatida qaragan.

Keyingi manba Tavhidiyning do'sti va ustozি hisoblanuvchi Abu Sulaymon al-Mantiqiydir. Olim Soflik birodarlarining barcha 52 risolasining muallifi sifatida Abu Sulaymon Al-Maqdisiyini keltiradi va Tavhidiy fikrlarining ishonchli ekanligini tasdiqlovchi bir qancha faktlarni keltiradi. Ammo, jamoaning boshqa a'zolari haqida ma'lumotlar mavjud emas.

Biz Abdu Al-Jabbor manbasida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilsak, u yerda Al-Maqdisiy nomini uchratmaymiz va umuman u yerda risolalarning o'zi haqida ham hech qanday ma'lumot yo'q. Az-Zanjoniyni yetakchi sifatida tasvirlovchi manbaga ishonadigan bo'lsak, faqatgina Al-Maqdisiyning o'zinigina barcha risolalar muallifi deb hisoblash ham to'g'ri bo'lmasdi.

Ushbu manbalardan kelib chiqib bizda muallliflar haqida to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Xususan, ulardan ikkitasi davlat xizmatidagi nufuzli arbob biri esa, qozi edi.

Keyingi davr manbalarida Sof birodarlar jamiyatni to'liq Ismoiliylar g'oyalarini qo'llab quvvatlagan degan fikrlar beriladi. Ammo, sharqshunos olim Anri Korben ularning ba'zi g'oyalari ismoiliy g'oyalariga mutlaq qarshi qo'yilganligini aytadi.[5] Navbatdagi o'rganishlar Birodarlarning Fotimiylar g'oyalari bilan ham qarama-qarshi turgaligini ko'rsatmoqda. Sof birodarlar risolalari Fotimiylar davrida deyarli ma'lum bo'limgan. Ulardan keyingi davrlarda esa risolalarning obro'si oshib boradi va Nizoriylar tomonidan juda yuksak baholanadi. Xatto, Nizoriylar Ixvon as-Safo a'zolarini o'zlarining ma'naviy yetakchilari sifatida bilgan degan qarashlar ham mavjud. Risolalarning XI asrdagi nusxasi Shtern tomonidan tarjima qilingan. Ushbu asar eng qadimgi qo'lyozmalardan hisoblanib, Halabda o'ldirilgan Assassin missioneriga tegishli deb topilgan.[6]

Guruh a'zoligiga da'vatlar. Birodarlar guruhga asosan yoshlarni targ'ib qilganlar. Keksa yoshlarning fikrini o'zgartirib bo'lmasligini va ular o'z e'tiqodlaridan istasalar ham voz kechmasliklarini bunga sabab sifatida keltirganlar. Yoshlarning esa qalbi hech qanday g'oyalar bilan "buzilmagan", xuddi, bulg'anmagan toza qog'oz kabidir. "...Shunday ekan, ey birodar, qarib qolgan, yoshlikda buzilgan g'oyalar va yomon odatlarga o'rganib qolgan keksalarni tuzatish bilan ovora bo'lma. Chunki, ular senga ergashgan taqdirda ham isloh bo'lishi qiyin bo'ladi. Agar ozroq isloh bo'lsa ham, ular yetuk natijaga erishmaydi. Sen esa, toza ko'ngilli, adab va ilmga qiziqqan yoshlarga e'tibor qarat".

Tashkilotda mas'ul bo'lgan birodar har bir yangi shaxsni diqqat bilan kuzatib, uning ahvolini va qobiliyatlarini o'rganishi kerak edi. Agar u odam tashkilotga qo'shilish uchun yaroqli deb topilsa, mas'ul unga oid maxfiy tarzda hisobot tayyorlab, tegishli tashkilotga topshirardi. Bu yordam dastlab yashirinchha ko'rsatiladi va shaxs yordam manbasidan bexabar qoladi.

Har bir toifa yoki tabaqa uchun maxsus tayyorlangan "da'vatchi" yoki "tashkilotchi" mavjud edi. Agar guruhga qo'shilishi kerak bo'lgan shaxs davlat hokimlari yoki yirik amaldorlardan bo'lsa, da'vatchi unga kunlik ishlaridan so'ng, ruhan xotirjam holatda, va albatta maxfiy muhitda murojaat qilishi kerak edi. Agar u inson Ixvon as-Safo jamiyatiga qo'shilishga rozi bo'lsa va kerakli qasamyodni qabul qilsa, u yig'ilishga kelib, jamiyatning ma'rzasini tinglardi. Birodarlar har bir toifa bilan ularning yuraklari qabul qiladigan, aql-idrokлari yetadigan va ruhlari sig'diradigan uslubda muloqot qilishardi.

Ixvon As-Safo jamoa a'zolarini to'rtta darajaga bo'ladilar.

• Birinchi daraja: 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan boshlang‘ich a’zolar. Ular “rahmdil va solih birodarlar” deb ataladi. Bu “hunarmandlar darajasi” bo‘lib, tashkilotning asosiy poydevorini tashkil etadi. “Abror va Rahiymon” darajasidagi shaxslar o‘z nafsi pok, qabul qilish qobiliyati yuqori va idrok etish tezligi yaxshi bo‘lganlar

• Ikkinci daraja: 30 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan a’zolar. Ular “yaxshi va fazilatli birodarlar” deb ataladi. Bu siyosat yurituvchi rahbarlar darajasi bo‘lib, bu bosqichda a’zolar falsafiy bilimlarni o‘rganadilar. “Fuzalo axyor” darajasidagi shaxslar o‘z birodarlariga nisbatan rahm-shavqat ko’rsatishga qodir shaxslar bo‘lishgan.

• Uchinchi daraja: 40 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan a’zolar. Ular “hurmatli va fazilatli birodarlar” deb ataladi. “Karomli fuzalo” guruh ichida yuzaga kelgan muammolarni muloyimlik va oqilona boshqaruv bilan hal etadilar.

• To‘rtinchi daraja: 50 yoshdan oshgan a’zolar. Ular “haqiqatni o‘z ko‘zi bilan ko‘rvuchilar” sifatida tan olinadi. Bu — donishmandlar darajasi bo‘lib, barcha birodarlar ushbu darajaga erishishga intiladilar. “Malakiy holat”dagi shaxs haqiqatni bevosa idrok etish darajasida bo‘ladilar. Tasavvufiy atama bilan aytganda, bu “Haqiqat”ga erishganlarning maqomidir.[7]

Jamoa a’zolari ma’lum majburiyatlarga ham ega bo‘lishgan. Xususan:

1. Har 12 kunda bir marta yig‘ilish.
2. Yig‘ilish joyi xavfsiz va nazoratdan uzoq bo‘lishi kerak.
3. Tozalik va ozodalikka e’tibor berish.
4. Yig‘ilishga qatnashish majburiy, faqat jiddiy sabab bo‘lsa qoldirish mumkin.

XULOSA

Ixon As-Saf o‘z zamonalarida keng tarqalgan qarash — ya’ni din va falsafa o‘zaro zid, degan tushunchaga qarshi chiqib, ikkalasini uyg‘unlashtirishni maqsad qilganlar. Ularning nazarida falsafa, ilohiy hikmatni anglash yo‘li bo‘lib, faylasuf (donishmand) esa Allohga o‘xshashishga intiluvchi insondir. Ular falsafani quyidagicha ta’riflaydilar: “Falsa — insonning imkon qadar Allohga o‘xshashishga intilishidir.” Shuningdek, ular Suqrot, Aristotel, Aflatun, Pifagor kabi qadimgi faylasuflarning hikmatlarini keltirib, bu hikmatlarning barchasi payg‘ambarlarning da’vatlari bilan bir manbadan kelib chiqqanini ko‘rsatishga uringanlar. Ularning ta’kidlashicha, barcha ilohiy va falsafiy ta’limotlar jismoniy qobiqni mensimay, rujni poklash va uni tabiat va materiyadan ozod qilishga chaqiradi. Xulosa qilib aytganda, Sof birodarlar o‘z davrining diniy va ilmiy fikrini uyg‘unlashtirish, inson ruhining yuksalishi va komillikka erishishini ta’minalash maqsadida faoliyat olib borgan qadimiy falsafiy-diniy jamoa sifatida tarixda o‘z izini qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1) Al-Dulaimi, Sh.A.J., & Al-Badrani, A.K.M. (2024). *The Semantic Implications of Binary Opposition in Al-Imta' wa Al-Mu'anah by Abu Hayyan Al-Tawhidi*. Researcher Journal of Islamic Sciences, 1(1), 319–340. Retrieved from <https://uofrjis.net/index.php/new/article/view/596>;
- 2) Gutas, D. (2001). Greek Thought, Arabic Culture (London: Routledge). p. 19;
- 3) Callataÿ, G. (2005). Ikhwan al-Safa' A Brotherhood of Idealists on the Fringe of Orthodox Islam (England: Thomson Press). Chapter 1 Esoterism. p.4;
- 4) O'sha manba p.7;
- 5) Корбен, А. (2010). История исламской философии (Россия, Прогресс-Традиция) с.134;
- 6) Stern, S. New information about the authors of the “epistles sincere brethren”. P.405-426. Islamic philosophy volume 21. (Germany: Straus Offsetdruck) Collected and reprinted Sezgin, F. (1999);
- 7) Netton, I. (1991). Muslim Neoplatonists: An Introduction to the Thought of the Brethren of Purity. (Great Britain: Edinburgh university press) p.6;
- 8) الفهد، س. ج. ٢٦، ٢٠١٥، الصفاء؟ إخوان يولييو! [Kitabat.com](https://kitabat.com/2015/07/26/).
<https://kitabat.com/2015/07/26/>